

**ASTRONOMIYA O'QITISHDA O'QUVCHI VA TALABALAR BILIMINI  
KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI BAHOLASH METODLARI.**

*Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi-*

*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Norqulova Madina Hamza qizi-*

*Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

**Kalit so'zlar:** *Axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga tatbiq etish. O'zbekiston Respublikasida internet rivoji mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofali o'qitish. Pedagogik texnologiya o'zida xususiyatlari.*

**Annotatsiya:** *Jamiyat taraqqiyoti, mamlakatimizda ta'lim sohasida ilmiy-metodik izlanishlar olib borish, jumladan kompyuter texnologiyalarini ta'lim tizimida foydalanishga oid yangi turdagi dastur va darsliklarning yangi avlodini yaratish, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkillashtirish zarurati tug'iladi. Ayniqsa, oxirgi uch yil davomida ta'lim tizimida o'quv jarayonlari masofaviy olib borilayotganligini inobatga olsak, axborot- texnologiyalarining xizmati yaqqol ko'zga ko'rinib qolmoqda.*

Oliy ta'lim muassasalarida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va uni zamonaviy dars jarayoni tarkibiga kirib borishi masalasi bugungi kunda juda dolzarbdir. Bu vazifani amalga oshirishda pedagog o'qituvchilarning o'rni muhim bo'lib, ulardan axborot- texnologiyalari bo'yicha kuchli bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi. Shundagina o'qituvchi zamonaviy talablarga javob bera oladigan shaxslarni tayyorlaydi va shakllantirishga erisha oladi.

Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsad va vazifalari:

dars jarayonini o'qitishning zamonaviy texnik vositalari asosida tashkil etish;

dars jarayonida astronomik hodisa yoki jarayonlarni vizual yoritish asosida talaba bilimini kengaytirish;

o'qituvchi va talaba o'rtasida virtual muhitda o'zaro muloqot munosabatlarini o'rnatish;

talabalar bilimini xolisona va shaffof baholashni tashkil etish;

talabalar o'z bilimini o'zi baholashini tashkil etish va h.k.

Shuningdek, pedagog-o'qituvchilar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining quyidagi afzalliklari mavjud [125; 118-121-b.]:

vaqtni tejash;

materialni obrazli taqdim etish qobiliyati;



qisqa vaqt davomida talabaga ko'proq ma'lumot yetkazish

Fanga chuqur va mustahkam qiziqish uyg'otish uchun talabalarning fikrlash qobiliyatini va diqqatni faollashtiruvchi, ilmiy-texnika rivojlangan sharoitda bilimning ahamiyatini tushuntirishga yordam beruvchi usullarni qo'llash lozim. Talabalarning fanga qiziqishlarini tarbiyalash ko'pgina texnik masalalarni hal qilishlariga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning astronomiyaga qiziqishlarini uyg'otishdagi asosiy manba o'qituvchining darsdagi faoliyati, uning shaxsiy sifati va talabaning bilish faolligini aniqlay olishidir. Talaba faolligini faqat bir dars davomida aniqlay olish mushkul, sabab astronomiya kursidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga juda kam soat ajratilgan. Bu soat ichida talaba o'z faolligini to'laligicha ko'rsata olmaydi. Talaba faolligini oshirishi uni o'zini o'zi nazorat qilishi uchun astronomiya fanida bir qancha dasturlardan foydalanish qo'l keladi. Shunday



dasturlardan biri bu LearningApps dasturi hisoblanadi. Interaktiv LearningApps dasturi talabalarga dars mashg'ulotlarini o'yin tarzida yetkazish, o'tilgan dars mashg'ulotini mustahkamlashda va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Bunda talabalar bilimni nazorat qilishda mashqlar yoki masalalarni tekshirishdan voz kechilib, vaqt tejiladi. Topshiriqlarini ishlab chiqaruvchi interaktiv modul (mashqlar) yordamida o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash o'qituvchi va talaba oldindan mavjud va tayyor andozalar bo'yicha interaktiv modullarni yaratishi mumkin. Ushbu xizmat orqali yaratilishi mumkin bo'lgan interaktiv topshiriqlarning asosiy g'oyasi shundaki, talabalar o'z bilimlarini o'yin shaklida sinab ko'rishlari va mustahkamlashlari mumkin bo'ladi, bu esa ma'lum bir o'quv predmetiga o'zlarining qiziqishlarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu xizmat ko'p sabablarga ko'ra universal hisoblaniladi.

O'qituvchi va talaba orasida onlayn masofaviy muloqotda bo'lish aniq va chegaralangan vaqtni talab etmaydi, chunki o'qituvchi va talaba o'zining bo'sh vaqtida zarur vazifalar va ko'rsatmalar berib, ularning bajarilishini qabul qilishi mumkin. Shuningdek, talabaning mavzuni samarali o'zlashtirishi uchun yetarlicha ta'lim resurslarini joylashtirish mumkin bo'ladi. Bu esa har ikki tomon uchun ham afzalliklarga ega. Biz tadqiqotimiz davomida LearningApps dasturi orqali astronomiyadan amaliy mashg'ulotlar bajarishga doir bir nechta mashqlar yaratdik, natijada berilgan topshiriqlar asosida talaba o'z bilimni mustahkamlaydi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Dastur asosida yaratilgan topshiriqlar turli xil shakllarda yaratilgan bo'lib, talaba o'zi mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo'lgan vazifalarni tayyorlab, elektron pochta orqali o'qituvchiga yuborib u bilan onlayn muloqotda bo'ladi. LearningApps dasturidan foydalanishdan avval foydalanuvchi, elektron pochta ochishi va shundan keyin, LearningApps dasturiy platformasida o'zining shaxsiy kabinetini yaratishi uchun ro'yhatdan o'tishi mumkin.

LearningApps dasturining yana bir afzalligi shundaki, unda o'qituvchi o'zining ma'lumotlar bazasiga boshqa o'qituvchining ma'lumotlarini ham bemalol kiritib qo'yishi mumkin. Bu esa o'qituvchida masofadan turib boshqa o'qituvchi bilan metod va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Shuningdek, LearningApps dasturiy platformasi yordamida boshqotirmalar ham tayyorlash mumkin. Bu esa astronomiya kursi bo'yicha talaba mustaqil ta'lim sifatini ham oshiradi. Bu boshqotirmalarni o'qituvchi tayyorlashi talaba ishlashi va o'z novbatida talaba ham tayyorlab boshqa talabalar ham ishlashi mumkin. Chunki, yuqorida aytganimizdek, LearningApps dasturidan foydalanuvchi boshqa bir foydalanuvchining ma'lumotlarini ko'rishi va o'zida saqlashi mumkin. Rasmda, talabalar tomonidan LearningAppsda tayyorlangan topshiriqlar va ularning boshqa talabalar tomonidan bajarilganlik natijalari keltirilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, LearningApps dasturiy platformasiga talabada fanga bo'lgan qiziqishning ortishida va mashg'ulotlarni oson va tez o'zlashtirishida yordam beradi. Talaba bilimni o'zini – o'zi va do'stlari yordamida nazorat qilishi esa bu fan doirasida talabada sog'lom raqobat muhitini yaratdi. Bu esa talabaning yanada ko'proq mustaqil ishlashi va bu fanni chuqur o'zlashtirishiga turtki bo'ldi. Bu esa talabaning kompetentligini oshishiga olib keldi. O'qituvchiga esa mavzu yuzasidan talaba bilimni nazorat etishi uchun kam vaqt sarflandi.



LearningApps dasturiy platformasida mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzish



LearningApps dasturiy platformasida krassvord tuzish

a) LearningApps dasturiy platformasida test yaratish

Adabiyotlar ro'yxati

1. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva Elements Of The Credit-Module System In Higher Education In The Republic Of Uzbekistan Web Of Scientists And Scholars: Journal Of Multidisciplinary Research 1 (8 ...
2. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva OPPORTUNITIES FOR THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM Web Of Humanities: Journal Of Social Science And Humanitarian Research 1 (8 ...
3. XOLMONOVA, Z. (2015). BABÜRNÂMEDEKİ BAZIKELİMELERİN TARİH? VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ. Journal of Social Sciences/Sosyal Bilimler Dergisi (2146-4561), 5(9).
4. Sabirova Nasiba Ergashevna. (2023). THE GENESIS OF BAKHSH PERFORMANCE IN THE KHOREZM REGION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 14, 134–138. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/616>
5. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva FINAL CONTROL WORK DISTANT. TSUL. UZ DOWNLOAD INSTRUCTION TO THE DISTANCE LEARNING PLATFORM Web Of Teachers: Inderscience Research 1 (8), 82-86
6. Сабирова, Н. Э. (2014). Фольклор и его значение в воспитании детей. In Актуальные вопросы современной науки (pp. 139-142).
7. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION Web Of Technology: Multidimensional Research Journal 1 (8), 9-11
8. Сабирова, Н. Э. (2021). ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ИСКУССТВА ХАЛФА ХОРЕЗМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР (pp. 387-390).
9. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva ADVANTAGES OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT MODULE SYSTEM IN EDUCATION Web Of Discoveries: Journal Of Analysis And Inventions 1 (8), 9-13
10. Сабирова, Н. Э. (2018). ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛОВ ОБРЯДОВЫХ ПЕСЕН, СВЯЗАННЫХ С ДРЕВНИМИ КУЛЬТАМИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 73-74).
11. R Nilufar, GI Sayfullayeva Principles Of The Credit-Module System Diversity Research: Journal Of Analysis And Trends 1 (8), 49-52
12. AM Bozorova OLYI TA'LIM MUASSASALARIDA ASTRONOMIYA KURSIDAN MASHG'ULOTLARNI O'QITISHDA VA TALABA KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI JORIY ...Journal Of Science-Innovative Research In Uzbekistan 1 (8), 6-11
13. SH Rozikulovich, S Gulhayo METHODOLOGY FOR FINDING THE TOPIC OF THE EARTH IN DISTANCE EDUCATION ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH Journal Of Academic Research And Trends In Educational Sciences 1 (10), 21-33 2022
14. GI Sayfullayeva, HR Shodiyev KREDIT MODUL TIZIMIDA FANLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O 'QITISHNING AFZALLIKLARI